TRANSPORT SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK VA IQTISODIY O'SISH INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUV VA IMKONIYATLAR.....	794
<b>Narziyev Umidjon Baxrillayevich</b>	
TURISTIK-REKREATSION XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	801
<b>Usmanova Zumrad Islamovna</b>	
МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ И РЕАЛИЗАЦИИ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЯХ В РАМКАХ РИСК-МЕНЕДЖМЕНТА.....	806
<b>Ахмедова Нилуфар Шукратовна, Курбонбекова Мохичехра Туробжоновна</b>	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA SOLIQ MA'MURCHILIGI USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	819
<b>Umurzak Ablakulovich Radjabov</b>	
AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISHDA XAVF-XATARLARNI BAHOLASHNING INNOVATSION USULLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	830
<b>Saidova Sevaraxon Abdumo'min qizi</b>	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR SANOAT SEKTORIDA SIRKULAR BIZNES-MODELLARNI YASHIL MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARI.....	834
<b>Isamuxamedov Boxodir Baxramovich</b>	
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОСТИ ЭКСПОРТНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ИНДУСТРИАЛИЗАЦИИ.....	838
<b>Бобоев М. Р.</b>	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ УСТОЙЧИВО-ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ВОЗМОЖНОСТИ АДАПТАЦИИ ПРАКТИК SMART TOURISM ДЛЯ КУЛЬТУРНО-ИСТОРИЧЕСКИХ РЕГИОНОВ (НА ПРИМЕРЕ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ).....	844
<b>Усманова Азиза Баходировна</b>	
ENERGY MANAGEMENT STRATEGIES FOR HYBRID ELECTRIC VEHICLES: A COMPREHENSIVE REVIEW.....	849
<b>Asretdinova L.J., Gulnora Sh.Y.</b>	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI BOSHQARISH VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	864
<b>B.Q. Madartov</b>	
SINXRON GENERATORNING O'Z-O'ZIDAN CHAYQALISH JARAYONINI TAHLIL QILISH.....	867
<b>Bekishev Allabergen Yergashevich, Zayniyeva Oliyaxon Egamberdiyevna, Kurbonov Najmiddin Abduxamidovich, Samadov Ilyos Azamat o'g'li</b>	
SUG'URTA SOHASINING IQTISODIY-HUQUQIY MOHIYATI VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI: NAZARIY ASOSLAR, MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR.....	875
<b>G'oziyeva Aziza Abdusalomovna</b>	
YANGI O'ZBEKISTON – UCHINCHI RENESSANS: CHORVACHILIKDA XALQ VETERINARIYASI XIZMATI TARIXI.....	880
<b>Sayfudinova Djamila Badridinovna</b>	
TALENT DEVELOPMENT AS A DRIVER OF EMPLOYEE JOB SATISFACTION IN UZBEKISTAN'S PRIVATE SECTOR: A MIXED-METHODS STUDY.....	885
<b>Farida Nishanova</b>	
FOTO ELEKTR STANSIYALARI TOMONIDAN ELEKTR ENERGIYANI ISH LAB CHIQRISH HOLATI TAHLILI.....	893
<b>Saidov Mash'al Samadovich</b>	
OILAVIY TADBIRKORLIK TARAQQIYOTIDA XORIJIY TAJRIBA HAMDA UNDA FOYDALANISH MEKANIZMLARI.....	900
<b>Ermatov Nosir Toxirovich</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QUYOSH FOTOELEKTR STANSIYALARINING HOLATI VA O'RNATILGAN QUVVATLARINI TAHLIL QILISH.....	907
<b>Maxamadiyev Farrux Mirazimovich, Baratov Laziz Suyun o'g'li</b>	



TIJORAT BANKLARINING XORIJIY KREDIT LINIYALARIDAN FOYDALANISH JARAYONIDA YUZAGA KELAYOTGAN MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI .....	912
<b>Ayitboev Nodirbek Rashid o‘g‘li</b>	
MINTAQALAR INVESTITSION SALOHİYATINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNI IJTIMOİY-IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA‘SIRI .....	916
<b>Qobilov Anvar Eshpo‘lotovich</b>	
THE IMPACT OF CULTURAL FACTORS ON VOCATIONAL EDUCATION REFORM IN SAUDI ARABIA.....	923
<b>Abdulmajeed Nabeel Azouz</b>	
HUDUDLARNI IJTIMOİYIQTISODIY RIVOJLANISHDA YIRIK SOLIQ TO‘LOVCHILARNI DIFFERENTIAL YONDASHUV ORQALI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI.....	929
<b>Imanova Umida Baxtiyarovna</b>	



# HUDUDLARNI IJTIMOIIYIQTISODIY RIVOJLANISHDA YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILARNI DIFFERENTIAL YONDASHUV ORQALI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

**Imanova Umida Baxtiyarovna**

umidaimanova89@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqola yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan mol-mulk va yer solig'ining mahalliy budjetlar tarkibiga to'liq o'tishi va ushbu jarayonning mahalliy budjetlar moliyaviy resurslarini boshqarishdagi ahamiyatiga bag'ishlangan. Maqolada soliq tushumlarining mahalliy budjetlarga o'tkazilishiga doir huquqiy va amaliyotdagi jarayonlar, buning mahalliy iqtisodiyot va moliya siyosatiga ta'siri atroflicha tahlil qilinadi. Mahalliy budjetlar tarkibiga soliq tushumlarining to'liq integratsiyalanishi mahalliy hokimiyatlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlaydi va infratuzilma, sog'liqni saqlash, ta'lim kabi ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy zaxiralarni mustahkamlaydi.

**Kalit so'zlar:** Large taxpayers, property and land tax, local budgets, financial resources, budget revenues, tax system, budget management, financial planning, distribution mechanism, economic development, local government, timely payments, efficient financial management, digitization and automation, budget income, budget policy.

**Abstract.** This article is dedicated to the complete integration of property and land tax payments made by large taxpayers into the structure of local budgets and the significance of this process in managing the financial resources of local budgets. The article provides a comprehensive analysis of the legal and practical processes related to the transfer of tax revenues to local budgets, as well as the impact of this process on local economic and financial policies. The full integration of tax revenues into local budgets ensures the financial independence of local governments and strengthens the financial resources necessary for the development of social sectors such as infrastructure, healthcare, and education.

The article also addresses the methodology of managing financial resources, including the correct distribution of the budget, effective utilization, and increasing transparency in financial processes. The social and economic outcomes of transferring property and land tax revenues from large taxpayers to local budgets are discussed, along with the necessary measures to further improve the efficiency of this process.

**Keywords:** Large taxpayers, property and land tax, local budgets, financial resources, budget revenues, tax system, budget management, financial planning, distribution mechanism, economic development, local government, timely payments, efficient financial management, digitization and automation, budget income, budget policy.

**Аннотация.** Статья посвящена полной интеграции платежей по налогу на имущество и землю, осуществляемых крупными налогоплательщиками, в структуру местных бюджетов и значению этого процесса в управлении финансовыми ресурсами местных бюджетов. В статье проводится комплексный анализ правовых и практических процессов, связанных с передачей налоговых поступлений в местные бюджеты, а также влияние этого процесса на местную экономику и финансовую политику. Полная интеграция налоговых поступлений в местные бюджеты обеспечивает финансовую независимость местных органов власти и укрепляет финансовые ресурсы, необходимые для развития социальных секторов, таких как инфраструктура, здравоохранение и образование.

В статье также рассматривается методология управления финансовыми ресурсами, включая правильное распределение бюджета, эффективное использование и повышение прозрачности финансовых процессов. Обсуждаются социальные и экономические результаты передачи доходов от налога на имущество и землю крупных налогоплательщиков в местные бюджеты, а также необходимые меры для дальнейшего повышения эффективности этого процесса.

**Ключевые слова:** Крупные налогоплательщики, налог на имущество и землю, местные бюджеты, финансовые ресурсы, доходы бюджета, налоговая система, управление бюджетом, финансовое планирование, механизм распределения, экономическое развитие, местное самоуправление, своевременные платежи, эффективное управление финансами, цифровизация и автоматизация, доходы бюджета, бюджетная политика.

## KIRISH

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda yirik soliq to'lovchilarning o'rni va ishtiroki ahamiyatli bo'lib, ular mahalliy iqtisodiyotning asosiy va ahamiyatli sub'yektlaridan biri hisoblanadi. Mahalliy budjetlar uchun muhim manba bo'lgan mol-mulk va yer solig'i tushumlari, shuningdek, yirik soliq to'lovchilarning iqtisodiy faolligi va ularga bo'lgan munosabat ijtimoiy rivojlanishga va iqtisodiy o'sishga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda, mahalliy hokimiyatlar uchun moliyaviy resurslarning samarali taqsimoti va ulardan foydalanishni ta'minlash muhim masalaga aylandi. Mahalliy budjetlarni shakllantirishda yirik soliq to'lovchilarga bo'lgan differensial yondoshuv, ularning moliyaviy ehtiyojlarini hisobga olish va o'ziga xos shart-sharoitlarni yaratish, mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Maqsadimiz — yirik soliq to'lovchilarni differensial yondoshuv orqali rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, metodologiyasi va ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini o'rganishdir. Shuningdek, maqolada mahalliy iqtisodiy salohiyatni oshirish, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish va mahalliy hokimiyatlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar hamda davlat va xususiy sektorning o'zaro hamkorligini rivojlantirish yo'llari ta'riflanadi.

Hududlarning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini yanada tezlashtirish va samarali moliyaviy boshqaruvni ta'minlash uchun yirik soliq to'lovchilarga nisbatan differensial yondoshuvni joriy etish — bu zamonaviy iqtisodiy siyosatning eng muhim qadamlaridan biridir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Akashev. V. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy manbalari va mexanizmlari haqidagi izlanishlar olib brogan. Bu manbada soliq to'lovchilarning iqtisodiy faolligi va ularga oid davlat siyosatining ahamiyati atroflicha tahlil qilinadi. Maxsus e'tibor soliq siyosati va mahalliy budjetlar tarkibiga qaratilgan, shu jumladan, yirik soliq to'lovchilarga nisbatan differensial yondoshuvning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari o'rganiladi. Mazarov. A. tadqiqot ishlarida soliq tizimining davlat iqtisodiyotiga bo'lgan ta'sirini, jumladan, yirik soliq to'lovchilarning ahamiyatini va mahalliy budjetlarga soliq tushumlarining integratsiyalanishini ko'rib chiqadi. Soliq tushumlarining mahalliy budjetlarga o'tkazilishi mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga qanday ta'sir qilishi haqida nazariy va amaliy nuqtai nazardan tushuntirish berilgan. KuliyeV. A. asarlari mahalliy moliya siyosati va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda soliq to'lovchilarga bo'lgan yondoshuvning ahamiyatiga bag'ishlangan. Ushbu manbada, hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish va ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishda soliq siyosatining turli jihatlari va mahalliy organlar faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha takliflar bildirilgan. Petrov, V. A. kitoblarida differensial yondoshuvning ta'rifi va uning mahalliy iqtisodiy rivojlanishga bo'lgan ta'siri yoritiladi. Avtor yondoshuvning har bir hududdagi iqtisodiy salohiyatga moslashishini, shu jumladan, yirik soliq to'lovchilarni qanday rag'batlantirish va ularning faolligini oshirish usullarini ko'rib chiqadi. Sidorov. A. o'z asarlarida mahalliy budjetlarning moliyaviy resurslarini samarali boshqarishdagi asosiy prinsiplar va o'rganishlar batafsil tahlil qilinadi. Soliq tushumlarining mahalliy budjetlarga to'liq o'tkazilishi jarayoni, shuningdek, yirik soliq to'lovchilarning har bir hududdagi iqtisodiy salohiyatga qanday moslashishini ko'rsatadi. Shermatov. Sh. esa soliq siyosati va mahalliy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatadi. Mahalliy hokimiyatlar uchun soliq imtiyozlari va rag'batlantirishning yoyilgan mexanizmlari yoritiladi, bu esa mahalliy iqtisodiy salohiyatni oshirish va ijtimoiy sektorni moliyalashtirishga xizmat qiladi. deb takidlaydi. Petrova. N. ilmiy ishlarida soliq tushumlarining mahalliy budjetlar rivojlanishidagi roli va ahamiyati batafsil tahlil qilinadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqsad-soliq to'lovchilarning iqtisodiy faolligini oshirish va mahalliy hokimiyatlar uchun moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash. Soliq siyosati va differensial yondoshuvning ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini o'rganadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida soliq-budjet tizimi modernizatsiya qilinishi davomida mahalliy budjetlarning mustaqil daromad manbalarini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Ayniqsa, yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan mol-mulk va yer solig'i tushumlarining tegishli mahalliy budjetlarga to'liq hajmda o'tkazilishi ushbu jarayonning muhim elementlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Yirik soliq to'lovchilardan tushadigan mol-mulk va yer solig'i to'lovlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy budjetlariga to'liq hajmda o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi hamda "Budjet tizimi to'g'risida"gi Qonunida belgilab qo'yilgan (1-rasm).



## Mahalliy Byudjetlar Daromadini Oshirish



1-rasm. Mahalliy budjetlar daromadini oshirish<sup>1</sup>

Xorijda yirik soliq to'lovchilarning taqsimlanishi, ularning faoliyat turlari va soliq siyosati bilan bog'liq ravishda turli tizimlar va mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Har bir mamlakatda soliq siyosatining asosiy maqsadi, yirik soliq to'lovchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, soliqlashish jarayonini samarali va adolatli tashkil etishdir. Shuningdek, yirik soliq to'lovchilarning qo'shgan hissasi har bir davlatning iqtisodiy o'sishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Soliq to'lovchilarning iqtisodiy faolligi - yirik soliq to'lovchilar, ko'p hollarda, iqtisodiyotning katta sektorlarida faoliyat yurituvchi yirik kompaniyalar va transmilliy korporatsiyalarni tashkil etadi. Ularning soliq to'lash muhtojligi va miqdori ularning ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish hajmiga, daromadlariga va mulk egaliklariga bog'liq.

Tashkilotning yuritgan faoliyati - xorijda yirik soliq to'lovchilar o'zlarining iqtisodiy faoliyatiga muvofiq ravishda turli kategoriyalarga bo'linadi. Masalan, moliyaviy xizmatlar, sanoat, texnologiyalar va energetika sohalaridagi yirik to'lovchilar alohida muhokama etiladi.

Mulk va daromadlar - yirik soliq to'lovchilarning mulklari va daromadlari ularning soliq to'lash miqdorini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Davlatlar o'rtasida bu omillar asosida soliq to'lovchilarning taqsimlanish tartibi turlicha bo'lishi mumkin.

Xorijdagi yirik soliq to'lovchilarni taqsimlashda turli usullar va mexanizmlar qo'llaniladi. Bu usullar, asosan, soliq tizimini samarali boshqarish va soliq bazasini kengaytirishga qaratilgan.

AQSH va Yevropa Ittifoqi kabi ba'zi mamlakatlarda yirik soliq to'lovchilar faoliyatining boshqarilishi va taqsimlanishi asosan iqtisodiy sektorlarga va soliq to'lovchilarning miqdorlariga ko'ra amalga oshiriladi. Misol uchun, AQSHda yirik korporatsiyalar va moliyaviy tashkilotlar alohida ta'riflangan soliq tizimlariga ega bo'lib, ularning soliq to'lash miqdori hamda hisobot berish talablari turlichadir.

Germaniya, Kanada va Yaponiya kabi mamlakatlarda yirik soliq to'lovchilarni turli tartiblar bo'yicha kategoriyalarga ajratishning integratsiyalangan tizimlari mavjud. Bu tizimlar soliq to'lovchilarni nafaqat iqtisodiy faoliyatiga, balki ularning hududiy joylashuvi va qo'shgan hissasiga ham qarab, alohida tartibga solishni nazarda tutadi.

Yangi texnologiyalarga ega bo'lgan yoki ekologik samaradorlikni oshirishga qaratilgan faoliyatni olib borayotgan yirik soliq to'lovchilar ko'pincha soliq imtiyozlari bilan rag'batlantiriladi. Bu, masalan, renewable energy (yashayotgan energetika) kompaniyalariga yoki ijtimoiy javobgarlikni kuchaytirgan tashkilotlarga qo'llaniladi.

Xorijiy tajriba asosida, yirik soliq to'lovchilarni taqsimlashning bir qator o'ziga xos jihatlari hamda buning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri mavjud. Masalan, Shveysariyada soliq to'lovchilarga nisbatan

<sup>1</sup> Маълумотлар асосида тадқиқотчи томонидан тузилди

qo'llaniladigan imtiyozlar va mexanizmlar o'zining shoxobchalar orqali joriy etilib, iqtisodiy barqarorlikni saqlashda katta rol o'ynamoqda.

Shuningdek, Singapurda yoki Skandinaviya mamlakatlarida yirik soliq to'lovchilarning faoliyati davlatning ijtimoiy va infratuzilma rivojlanishiga qaratilgan strategiyalar bilan bog'liq. Bunda soliq to'lovchilar o'zlari faoliyat yuritgan sohalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishga yo'naltirilgan.

Xorij tajribasi shundan dalolat beradiki, yirik soliq to'lovchilarni taqsimlashda davlatlar uchun iqtisodiy faollik va ijtimoiy mas'uliyatni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Ushbu tajribalar O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham ahamiyatli, chunki ularning mahalliy iqtisodiy salohiyatni oshirish, soliq tizimini samarali tashkil etish va ijtimoiy sektorni moliyalashtirishda ko'p bo'lgan imkoniyatlarini o'z ichiga oladi (1-jadval).

#### 1- jadval. Hududlar rivojlanishining iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlar jadvali<sup>2</sup> ( 2023-2024 yillar, %)

Hudud	YaHM o'sishi (%)	Investitsiya oqimi (yuqori/sust)	Ishsizlik darajasi (%)
Toshkent shahri	7,2	Yuqori	5,0
Samarqand viloyati	6,9	O'rtacha	6,5
Namangan viloyati	6,9	O'rtacha	7,0
Qoraqalpog'iston	4,5	Sust	8,5
Qashqadaryo	5,8	O'rtacha	7,2

2024-yilda Davlat budjeti daromadlari prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan 100 foizga bajarilib, haqiqatda ijrosi 271 trln so'm bo'lishi kutilmoqda. Bu o'tgan yilgi daromadlarga nisbatan 39,3 trln so'mga yoki 17 foizga ko'p. Resurs soliqlari va mol-mulk solig'i bo'yicha tushumlar 36,2 trln so'm bo'lishi kutilmoqda. Bu o'tgan yilgi daromadlarga nisbatan 8,2 trln so'mga yoki 29,1 foizga ko'p. 2023-yilda resurs soliqlari va mol-mulk solig'i tushumlari Davlat budjeti daromadlarining 13,4 foizini tashkil qilishi kutilmoqda.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan jadvalda hududlararo tafovut ko'rsatkichlari tahlil qilingan. O'zbekiston hududiy rivojlanishining statistik tahlil viloyatlararo tafovutlarni, YaHM o'sishini va investitsiyalarni baholashga asoslanadi. Toshkent shahri va yaqin hududlar yetakchilik qiladi, markazdan yiroq bo'lgan viloyatlar esa infratuzilma va investitsiya jihatdan orqada qolmoqda. YaHM o'sishi 2023-2024yillarda Samarqand va Namanganda 6,9 % ga yetgan, umumiy mamlakat bo'yicha esa markaziy hududlarda yuqori, investitsiya oqimi markazlarda to'planib, markazdan yiroq bo'lgan hududlarda nisbatan sust hisoblanadi. " O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida differensial yondashuv orqali barqarorlikni oshirish mumkin.

Metodologiyada baholash maqsadi, ob'yekt xususiyatlari va axborot bazasiga qarab tanlanadi. Tahliliy ekspertiza va muvofiqlik prinsipi qo'llaniladi. Hisobotda tanlovlar asoslab beriladi, bozor muhiti va tashqi ta'sirlar hisobga olinadi. O'zbekiston standartlariga ko'ra, aktivlar va majburiyatlar guruhlari uchun majburiy qo'llaniladi.<sup>3</sup>

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mol-mulk solig'ini mahalliy budjetlar tarkibiga to'liq integratsiyalash mol-mulk solig'i to'lovlarini mahalliy budjetlarga to'liq o'tkazish tizimini joriy qilish. Bu yirik soliq to'lovchilardan tushgan tushumlarni mahalliy hokimiyatlar uchun qo'shimcha moliyaviy resurslar manbaiga aylantiradi. Maxsus soliq imtiyozlari va rag'batlantirish mexanizmlari orqali, masalan, infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy xizmatlar uchun moliyaviy mablag'lar to'planishi ta'minlanadi. Shuningdek, mahalliy budjetlar uchun mol-mulk solig'i olib keladigan daromadlarning samarali taqsimlanishi hududning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini mustahkamlashga yordam beradi.

Soliq imtiyozlari va rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish yirik soliq to'lovchilarga hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun maxsus soliq imtiyozlari va rag'batlantirish mexanizmini joriy qilish. Bu mexanizmlarga eko-do'st bizneslar, yangi texnologiyalarga investitsiya kiritish, yoki ijtimoiy loyihalarga sarmoya kiritishni rag'batlantirish kiradi. Mahalliy hokimiyatlar yirik soliq to'lovchilarga ushbu imkoniyatlar orqali ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shishga yordam beradi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda yirik soliq to'lovchilarning o'rni va ishtiroki katta ahamiyatga ega. Mol-mulk va yer solig'i tushumlarining mahalliy budjetlarga to'liq o'tkazilishi, mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish va ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishda muhim omil bo'lib, ushbu jarayon mahalliy hokimiyatlarga moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi. Maxsus soliq imtiyozlari va rag'batlantirish mexanizmlari orqali

<sup>2</sup> Stat.uz ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

<sup>3</sup> Lex.uz ma'lumotlari bilan asoslanib tahlillandi.



yirik soliq to'lovchilarning faolligini oshirish, infratuzilma, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarini moliyalashtirishga yordam beradi.

Shuningdek, soliq to'lovchilarga bo'lgan differensial yondoshuv orqali mahalliy iqtisodiyotga moslashgan maxsus shart-sharoitlar yaratish, ularning ijtimoiy va iqtisodiy mas'uliyatini oshirish hamda mahalliy hokimiyatlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Mol-mulk solig'ini mahalliy budjetlarga to'liq integratsiyalash, soliq to'lovchilarga qo'llaniladigan imtiyozlar va rag'batlantirish mexanizmlari hududlarning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini samarali yo'lga qo'yishga ko'maklashadi.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini yanada tezlashtirish va samarali moliyaviy boshqaruvni ta'minlash uchun yirik soliq to'lovchilarga nisbatan differensial yondoshuvni joriy etish - zamonaviy iqtisodiy siyosatning eng muhim qadamlaridan biridir. Bu yo'nalishdagi takliflar va amalga oshiriladigan choralar O'zbekistonda mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Biz tomonimizdan ilgari surilgan takliflar mamlakat moliya-iqtisodiy siyosatining mahalliylik shuvi va hududiy moliyaviy mustaqillikni kuchaytirishga qaratilgan mustahkam ilmiy-amaliy asoslarga ega. Xususan, davlat aktivlarini sotishdan tushadigan mablag'larni mahalliy budjetlar o'rtasida teng taqsimlash, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining kamida 50 foizini tumanlar va shaharlar budjetiga yo'naltirish, shuningdek, yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan mol-mulk va yer solig'i tushumlarini hududiy budjetlarga to'liq o'tkazish borasidagi takliflar amaliyotdagi ahamiyati va dolzarbligini yaqqol namoyon etadi.

Bunday yondashuv, avvalo, mahalliy boshqaruv organlari fiskal rag'batlarini kuchaytiradi, budjet tushumlarini oshirishga va soliq-budjet intizomini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, mahalliy budjetlar moliyaviy mustaqilligini kengaytirish orqali hududlarda yangi ish o'rinlari yaratish, infratuzilmani rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni tezkor va manzilli amalga oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, tuman va shaharlar kesimida ijara to'lovining eng kam stavkalarini 2,0 gacha oshiruvchi koeffitsiyent joriy etish taklifi mahalliy kengashlarga hududiy rivojlanish darajasiga qarab mustaqil tarzda moliyaviy siyosatni shakllantirish vakolatini kengaytirdi. Bu esa hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, tadbirkorlik faoliyatini qonuniy va oqilona tarzda soliqqa tortish orqali budjet tushumlarini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida bayon etilgan taklif va ularning huquqiy jihatdan davlat budjeti to'g'risidagi Qonunga kiritilishi, ilmiy xulosalarimiz mamlakatning fiskal siyosatini modernizatsiya qilish, markaz va hudud o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni optimallashtirish va mahalliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Imanova U.B. - Mahalliy budjetlar moliyaviy resurslarini metodologik xususiyatlarini aniqlash va o'zgarishlarni takomillashtirish yo'llari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali. – 2023. – № 4. – B. 45-58.
2. Imanova U.B. - Mahalliy budjetlarni o'rta muddatli rejalashtirish istiqbollari: avtoreferat. – Toshkent: TDIE, 2024. – 24 b. (08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit).
3. «Xususiylashtirish va davlat mulkini boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida» PQ-5036-son qarori. – 2022 yil 15 noyabr.
4. Länderfinanzausgleich und kommunale Finanzierung in Deutschland. – Berlin: BMF, 2023. – S. 112-135.
5. Making Decentralization Work. – Paris: OECD Publishing, 2022. – P. 245-267.
6. "Jang'g'iruvchi Qozog'iston" dasturi doirasida mahalliy budjetlar hisoboti. – Astana, 2024. – B. 67-89.
7. Davlat budjeti ijrosi bo'yicha hisobot (2024 yil). – Toshkent, 2025.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 2**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)